Yetarlilik shartiga oid masalalar

1 Agar siz zo‘r basketbolchi bo‘lishni istasangiz, sizda iste'dod bo‘lishi va qattiq shug‘ullanishingiz kerak.

Agar yuqoridagi ma’lumot to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Agar sizda iste'dod bo‘lsa-yu, lekin qattiq shug‘ullanmasangiz ham, siz basketbolda muvaffaqiyat qozonishingiz mumkin.

B) Agar siz basketbol o‘ynamasangiz, siz qattiq shug‘ullanmagansiz va iste'dodingiz bo‘lmasa kerak.

C) Agar siz qattiq shug‘ullansangiz, basketbolda qobiliyatli bo‘la olasiz.

D) Agar sizda iste'dod bo‘lsa va yetarlicha qattiq shug‘ullansangiz, zo‘r basketbolchi bo‘la olasiz

Kris hozirgi guruhidan yangi guruhga o‘tishga harakat qilmoqda.

– Agar talaba yangi guruhga kirishni istasa va hozirda hech bir guruhda yo‘q bo‘lsa, u testdan o‘tishi va suhbatda qatnashishi kerak.

– Agar talaba hozir biror bir guruhda bo‘lsa, u holda ular faqat testdan o‘tishlari kerak.

– Agar ular biror bir guruhda bo‘lmagan bo‘lsa, u holda ular testda a'lo ball olishlari yoki suhbatni ham, testni ham yaxshi topshirishlari kerak edi.

Kris yangi guruhga qabul qilinmadi.

Bunga nima sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak?

A) Kris testda a'lo ball olmadi.

B) Kris testni yaxshi o‘tkazdi, lekin suhbatni emas.

C) Kris test va suhbatni yomon topshirdi.

D) Kris testdan o‘ta olmadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

3 Ben quyidagi nutq so‘zladi:

Kartoshka sayyorada mavjud bo‘lgan eng ko‘p qirrali oziq-ovqatlardan biridir. Pishirish usullariga kelsak, ular dudlab pishirilishi, qovurib pishirilishi, pechkada pishirilishi hatto bug‘da pishirilishi mumkin. Ular, shuningdek, turli yo‘llar bilan tayyorlanishi mumkin: tilim-tilib qilib kesilishi, mayda bo‘laklarda tug‘ralishi, pyure qilinishi yoki hatto butunligicha tayyorlanishi. Pishirish va tayyorlash usullari ko‘pligi kartoshkani sayyoradagi eng ajoyib sabzavotlardan biri va mening sevimli taomimga aylantiradi. Kartoshkadan tayyorlanishi mumkin bo‘lgan ba'zi ovqatlar bu Fransuz chipslari va pyuresidir.

Endi 3 ta bayonot berilgan:

1. Agar kartoshkani faqat dudlab pishirish mumkin bo‘lganida, u Benning sevimli taomi bo‘lmas edi.
2. Agar pomidor kartoshka kabi ko‘p qirrali bo‘lsa, ular ham eng ajoyib sabzavotlardan biri bo‘lishi mumkin.
3. Kartoshka Benning sevimli taomidir, chunki undan Fransuz chipsini tayyorlash mumkin.

To‘g‘ri bayonotlarni tanlang

A) Bayonot 1 va 3

B) Bayonot 2 va 3

C) Bayonot 1 va 2

D) Bayonot 1, 2 va 3

4 Agar kasal bo‘lsangiz, niqob taqishingiz va qo‘lingizni yuvishingiz kerak. Yuqoridagi bayonat to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan **xato** fikrni toping.

A) Niqob taqqanligingiz, siz kasal ekanligingizni anglatmaydi.

B) Qo‘lingizni yuvish va niqob taqish kasal ekanligingizni bildiradi.

C) Agar siz niqob taqmagan bo‘lsangiz, kasal emassiz.

CamScanner yordamida skanerlangan

D) Agar kasal bo‘lmasangiz, niqob taqishingiz shart emas.

5 Agar Jeff mashq qilmasa, u semiradi. Agar u semirsa, u tez yugurmaydi. Agar u tez yugursa, u yuguruvchi jamoaga olinishi mumkin. Ertalab bug‘doy iste'mol qilish uning tez yugurishiga yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan to‘g‘ri variantni tanlang.

A) Agar Jeff ertalab bug‘doy iste'mol qilsa, u yuguruvchi jamoaga olinadi.

B) Jeff mashq qilsa, yuguruvchi jamoaga olinadi.

C) Agar Jeff yuguruvchi jamoaga olinmasa, demak u mashq qilmagan.

D) Mashq qilish uning yuguruvchi jamoaga olinishi anglatmaydi.

6 Muvaffaqiyatga erishish kalitidan biri bu ta'lim. Agar siz o‘qimasangiz, maktabda muvaffaqiyatsizlikka uchraysiz.

Yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi jumlalardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar siz bilimli bo‘lsangiz, kelajakda sizda katta imkoniyatlar bo‘ladi.

B) Agar maktabda muvaffaqiyatsizlikka uchrasangiz, muvaffaqiyatli bo‘la olmaysiz.

C) Ta'lim sizni kasbingizda muvaffaqiyat olib keladi.

D) Muvaffaqiyatga erishishning ta'limdan tashqari boshqa usullari ham mavjud.

7 Uysiz odamga hunar va bilimlarni o‘rgatish yaxshidir, chunki bu unga ish topishga yordam beradi. Agar u ishlay olsa, u pul topadi. Agar uning puli bo‘lsa, bu unga uy sotib olishga yordam beradi va boshqa uysiz bo‘lmaydi.

Yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar sizda hunar va bilim bo‘lsa, siz uysiz qolmaysiz.

B) Uysiz odamga pul bersang, u uysiz qolmaydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

C) Agar siz uysiz bo‘lsangiz, bu sizning ishingiz yo‘qligini anglatadi

D) Agar sizning uyingiz bo‘lsa, siz uysiz bo‘lmaysiz.

8 Maktab musiqa dasturida zarbli cholg‘u asboblarini chalishni biladigan o‘g‘il bolalar yo‘q edi.

Yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Faqat qizlar zarbli cholg‘ularni chalishni bilishardi

B) Musiqa dasturida faqat qizlar bor.

C) Musiqa dasturida o‘g‘il bolalar juda kam bo‘lishi kerak.

D) Bizda yetarli ma'lumot yo‘q.

9 Yuliy supermarketga borib, kassachi ayolga shunday dedi: "Men hind bananini istayman, lekin agar bundayi bo‘lmasa, men salqin ichimlik sotib olaman".

Qaysi variant Yuliyning salqin ichimlik sotib olishiga olib keladi.

A) Ularda faqat arab bananlari bor

B) Ularda 3 xil salqin ichimliklar mavjud

C) Ularda hind bananlari va arab bananlari bor

D) Ularda apelsin bor

10 Printerda 3 ta chiroq mavjud. Qizil chiroq yonib-o‘chsa, u qog‘oz tugaganligi va qog‘oz tiqilib qolganligi bo‘yicha muammolardan kamida bittasi sodir bo‘lganligini ko‘rsatadi. Yashil chiroq yonib-o‘chganda, u siyoh yo‘qligini ko‘rsatadi. To‘q sariq chiroq yonib-o‘chsa, u siyoh yo‘qligini yoki qog‘oz yo‘qligini ko‘rsatadi. Barcha chiroqlar yonib-o‘cha boshladi.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

CamScanner yordamida skanerlangan

A) Siyoh va qog‘oz yo‘q.

B) Faqat siyoh yo‘q.

C) Siyoh, qog‘oz yo‘q va qog‘oz tiqilib qolgan.

D) Siyoh yo‘q va qog‘oz tiqilib qolgan

11 Yuqori kaloriyali oziq-ovqatlarni muntazam iste'mol qilish semirish kabi asoratlarga olib keladi. Shuningdek zararli oziq-ovqatlarni sog‘lom oziq-ovqat bilan solishtirganda unchalik to‘yimli bo‘lmagani uchun kamroq energiyaga ega bo‘lasiz. Mcdonalds va KFC kabi restoranlardagi zararli taomlarni iste'mol qilishni to‘xtatishingiz mumkin.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar Mcdonalds va KFC narxi ko‘tarilsa, odamlar zararli taomlarni iste'mol qilishni to‘xtatadilar.

B) Agar siz fastfood ovqat iste'mol qilmasangiz, semirib ketishingiz mumkin emas.

C) Agar sog‘lom ovqat iste'mol qilishni boshlasangiz, sizda ko‘proq energiya bo‘lishi mumkin.

D) Mcdonalds va KFC iste'mol qilsangiz, siz semirib ketmaysiz

12 Yoga - bu cho‘zilish, nafas olish va meditatsiyani o‘z ichiga olgan intizom bo‘lib, u odamlarga hissiy, aqliy, jismoniy va ma'naviy yordam beradi. Uzoq vaqt meditatsiya bilan shug‘ullanish sabr-toqat va o‘zini his qilishni rivojlantirishga yordam beradi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar siz cho‘zilish bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsangiz, u holda siz yoga bilan shug‘ullanayotgan bo‘lasiz.

B) Meditatsiya yoga mashg‘ulotlarining bir qismidir.

CamScanner yordamida skanerlangan

C) Agar siz yoga bilan shug‘ullansangiz, u holda sizda hissiy va jismoniy muammolar bo‘lmaydi.

D) Agar sizda sabr bo‘lsa, u holda siz yoga bilan shug‘ullanasiz.

13 Muvaffaqiyatli basketbolchilar gol urishda zo‘r bo‘lishlari kerak, ammo ular himoyada zo‘r bo‘lishlari shart emas.

Yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar Maykl muvaffaqiyatli basketbolchi bo‘lsa, u eng yaxshi himoyachi bo‘lishi kerak.

B) Agar Reychel himoyada zo‘r bo‘lsa, u muvaffaqiyatli basketbolchi bo‘la olmaydi.

C) Agar Jeyms muvaffaqiyatli basketbolchi bo‘lsa, u gol urishda zo‘r bo‘lishi kerak.

D) Agar Emma himoyada zo‘r bo‘lmasa, u muvaffaqiyatli basketbolchi bo‘la olmaydi.

14 Agar Frenk mashg‘ulotlarga bormasa, u dam olish kunlari bo‘lib o‘tadigan futbol o‘yinida maydonga tusha olmasligi mumkin. Agar u hafta oxiri futbol o‘yinida o‘ynamasa, professional skautlar uni ko‘ra olmaydi. Agar professional skautlar uning hafta oxiri futbol o‘yinida o‘ynayotganini ko‘rsa, unga sport stipendiyasi taklif qilinishi mumkin. Aks holda, uning imkoniyati qolmaydi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Frank mashg‘ulotlarda qatnashdi, ammo sport stipendiyasini olmadi.

B) Frank hafta oxiri futbol o‘yinida o‘ynadi, ammo sport stipendiyasini olmadi.

C) Frank mashg‘ulotlarda qatnashmadi, lekin sport stipendiyasini oldi.

D) Frank hafta oxiri futbol o‘yinida o‘ynamadi, lekin baribir sport stipendiyasini oldi.

CamScanner yordamida skanerlangan

15 Olim kech uyg‘ondi va maktabga vaqtida borish yo‘lini topishi kerak. U faqat qo‘shnisining itiga duch kelmasagina, maktabga o‘z vaqtida yetib boradi, aks holda, u qo‘rqib ketadi.

Olim qo‘rqib ketgan bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Olim qo‘rqmadi, shuning uchun u maktabga kechikishi kerak.

B) Olim itga duch kelmaydi, shuning uchun u kech uyg‘onsa, u maktabga kechikadi.

C) Olim qo‘rqib ketdi, shuning uchun u maktabga kechikadi

D) Olim maktabga kechikdi, shuning uchun u qo‘rqmagan.

16 Nensi marketing kompaniyasiga ishga kirish uchun ariza topshirayotgan edi. Mavjud marketing bilimlarini hisobga olgan holda, ish beruvchilar, shuningdek, mantiqiy va psixologik test oladilar.

Agar nomzod kamida marketing bo‘yicha ma'lumotga ega bo‘lsa, unda ular faqat mantiqiy testdan o‘tishlari kerak edi. Aks holda, ular maniqiy testda maksimal ball olishlari yoki mantiqiy testdan ham, psixologik testdan ham yaxshi natijalarga erishishlari kerak. Nensi marketing sohasida katta tajribaga ega, ammo ishga kira olmadi.

Nima sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak?

A) U mantiqiy testda maksimal ball olmadi.

B) U psixologik testda yomon ball oldi.

C) U ikkita testda ham yomon ball oldi

D) U mantiqiy testidan o‘ta olmadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

17 Kris o‘zining eng yaxshi sherigi Jonga telefon orqali qo‘ng‘iroq qildi. Biroq, Jon juda ham uyquchi bola va u uxlamayotgan bo‘lsagina ko‘taradi va uxlab yotgan bo‘lsa, u xursand bo‘ladi.

Jon xursand ekanini inobatga olsak, qaysi biri to‘g‘ri?

A) Jon uxlab yotibdi, shuning uchun u xafa emas

B) Jon xafa, shuning uchun u Kris bilan telefonda gaplashmayotgan bo‘lsa kerak

C) Jon uxlamayapti, shuning uchun Kris qo‘ng‘iroq qilsa, u ko‘tarmaydi

D) Jon xursand, shuning uchun u Kris bilan telefonda gaplashayotgan bo‘lsa kerak

18 Kimki poygada birinchi bo‘lib kelgan bo‘lsa, u juda chidamli va zo‘r yugurish taktikasiga ega

Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, ushbu jumlalarning qaysi biri ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Agar Jeymi poygada birinchi bo‘lib kelmagan bo‘lsa, u juda chidamli emas.

B) Agar Jeymi juda chidamli va zo‘r yugurish taktikasiga ega bo‘lsa, u poygada birinchi bo‘lgan bo‘lishi kerak

C) Agar Jeymi zo‘r yugurish taktikasiga ega bo‘lmaganida, u poygada birinchi bo‘la olmasdi

D) Agar Jeymi poygada birinchi bo‘lmasa, u zo‘r yugurish taktikasiga ega bo‘lmagan bo‘ladi

19 Siz litsenziya olish uchun haydovchilik qo‘llanmasini diqqat bilan o‘qib chiqishingiz va yo‘lda juda e'tiborli bo‘lishingiz kerak.

Yuqoridagi bayonotga muvofiq, quyidagi bayonotlardan qaysi biri Joan litsenziya olishi mumkinligini anglatadi?

CamScanner yordamida skanerlangan

A) Joan haydovchilik qo‘llanmasini o‘qib chiqdi, lekin ba'zida yo‘lda diqqatini yo‘qotadi.

B) Joan haydovchilik qo‘llanmasiga ko‘z tashlab chiqdi va har doim yo‘lga juda e’tiborli bo‘ladi.

C) Joan haydovchilik qo‘llanmasini ikki marta o‘qib chiqdi va haydash paytida hech qachon diqqatini yo‘qotmaydi.

D) Joan qo‘llanmani o‘qib chiqdi va onasi unga ba'zida diqqatini yo‘lga qaratishi kerakligini aytishi kerak.

20 Rustamning maktabi yangi futbol jamoasining a’zosi bo‘lish uchun o‘quvchilarni tanlab oladi. Agar o‘quvchilar allaqachon futbol o‘ynash tajribasiga ega bo‘lsalar, ular faqat amaliy testdan o‘tishlari kerak edi. Agar ular futbol o‘ynash tajribasiga ega bo‘lmasalar, ular amaliy testida a'lo daraja ball olishlari yoki o‘yin qoidalariga asoslangan holda amaliy va nazariy testdan o‘tishlari kerak edi. Rustam futbol o‘ynash tajribasiga edi ammo u jamoaga tanlanmadi.
Quyidagi sabablardan qaysi biri Rustamning jamoaga tanlanamganiga asos bo‘ladi?

A) U amaliy testdan o‘ta olmadi.

B) U amaliy testda yaxshi ball olmadi.

C) U amaliy va nazariy testdan o‘ta olmadi.

D) U nazariy imtihonda yaxshi ball olmadi.

21 Agar men och bo‘lsam, men ovqatlanaman yoki uxlayman.
Agar yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Men ovqatlanyapman, shuning uchun och bo‘lishim kerak.

CamScanner yordamida skanerlangan

B) Men uxlamayapman, ovqatlanmayapman yoki bunday qilishni rejalashtirmayapman, shuning uchun och bo‘lmasam kerak.

C) Men och emasman, shuning uchun uxlamayman.

D) Men uxlayapman, shuning uchun och qolgan bo‘lsam kerak

22 – Fiona yetarlicha suv ichmasa, keyingi kun uchun quvvati qolmaydi

– Agar uning kuchi yetarli bo‘lmasa, u o‘z poygasida yaxshi natijalarga erisha olmaydi.

– Agar u o‘z poygasida yaxshi natija ko‘rsatsa, unga shaxar jamoasidan joy taklif qilinadi.

Agar bu gaplar to‘g‘ri bo‘lsa, quyida keltirilganlardan qaysi biri mumkin emas?

A) Fiona o‘z poygasida yaxshi natijalarga erishdi va unga shaxar jamoasidan joy taklif qilindi.

B) Fiona kun uchun yetarli kuchga ega edi va unga shtat jamoasidan joy taklif qilindi.

C) Fiona yetarli miqdorda suv ichmadi va poygada yaxshi qatnashdi.

D) Fiona umuman suv ichmadi va o‘z poygasida yaxshi qatnashmadi

23 Jeyms odatda nonushta qiladi. Agar Jeyms nonushta qilsa, u tushlik qiladi. Agar u tushlik qilsa, u doim kechki ovqatni yeydi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri fikr?

A) Jeyms tushlik qildi, lekin nonushta qilmadi

B) Jeyms kechki ovqatni yedi, lekin nonushta qilmadi

C) Jeyms faqat kechki ovqatni yedi.

D) Jeyms nonushta qildi va kechki ovqatni yedi

CamScanner yordamida skanerlangan

24 Shokolad fabrikasi to‘rt turdagi shokolad ishlab chiqaradi: qora, sutli, vaflili va yong‘oqli. U qora shokalad qilsa doim sutli shokolad ham qiladi. Huddi shunday, agar sutli shokalad qilsa, doim qora shoklad ham qiladi. Agar shokoladchi sutli shokolad qilsa, u yong‘oqli shokolad tayyorlashi mumkin, ammo vaflili shokolad tayyorlamaydi. Agar vaflili shokolad tayyorlansa, qora shokolad tayyorlanadi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri fikr?

A) Agar qora shokolad tayyorlansa, vaflili shokolad ham tayyorlanadi.

B) Agar vaflili shokolad tayyorlansa, sutli shokolad ham tayyorlanadi.

C) Agar qora shokolad tayyorlansa, yong‘oqli shokolad tayyorlanmaydi.

D) Agar vaflili shokolad tayyorlansa, yong‘oqli shokolad ham tayyorlanadi.

25 Sem o‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda matematikadan yaxshiroq ekanini isbotlashga harakat qilmoqda. U buni 1 ta test natijalarini yig‘ish orqali amalga oshirdi. U o‘g‘il bolalarning o‘rtacha bahosi 100 balldan 69 ball, qizlarning o‘rtacha bahosi 100 balldan 62 ball ekanligini aniqladi. Uning matematika sinfida 4 o‘g‘il va 17 qiz bor. Qizlar orasida eng yuqori ball 86 ball, o‘g‘il bolalar orasida esa 90 ball bo‘ldi.

Nega Semga o‘g‘il bolalar matematikadan qizlarga qaraganda yaxshiroq ekanligini isbotlash uchun kuchli dalillar keltirishi qiyin?

A) Sem faqat bitta test natijalarini ko‘rib chiqdi

B) Testni bajarayotgan qizlar yetarli emas edi

C) O‘rtacha bahodagi farq unchalik katta emas

D) Yuqori ball olganlar orasidagi farq unchalik katta emas

26 Ertaga Emi suzish musobaqasida qatnashadi. Agar Emi yetarlicha uxlasa, ishtahasi paydo bo‘ladi va nonushta qiladi. Agar Emi yetarlicha uxlamasa, uning nonushtada ishtahasi paydo bo‘lishi ehtimoli juda kam. Agar Emi nonushta qilsa,

CamScanner yordamida skanerlangan

unda musobaqa uchun energiya bo‘ladi, aks holda unga energiya yetishmaydi. Agar Emi poyga uchun yetarli kuchga ega bo‘lsa, u 1-o‘rinni oladi. Aks holda, eng yaxshi holatda, u 3-o‘rinni egallaydi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri mumkin?

A) Emi yetarlicha uxlaydi, lekin 1-o‘rinni ololmaydi

B) Emi nonushta qilmaydi va 1-o‘rinni oladi

C) Emi yetarlicha uxlamaydi va musobaqada 1-o‘rinni egallaydi

D) Emi yetarlicha uxlaydi va 4-o‘rinni egallaydi

27 Agar kimdir karantinga olingan bo‘lsa, u test qilingan va tasodifan Covid-19 bilan kasallanganligi aniqlangan bo‘lishi kerak.

Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, ushbu jumlalarning qaysi biri ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Agar Amold test qilingan va tasodifan Covid-19 bilan kasallanganligi aniqlangan bo‘lsa, u karantinda bo‘lgan bo‘lishi kerak.

B) Agar Arnold karantinda bo‘lmasa, u test qilinmagan.

C) Agar Amold karantinda bo‘lmasa, u Covid-19 bilan kasallangan bo‘lishi mumkin emas.

D) Agar Arnold Covid-19 ga chalinmasa, u karantinda bo‘lishi mumkin emas.

28 Chiqindi qutilari har hafta yig‘iladi, ammo qayta ishlash va bog‘ qutilari har ikki haftada bir marta navbati bilan yig‘iladi (ya'ni, A hafta: chiqindi va qayta ishlash, B hafta: chiqindi va bog‘). Chiqindilarni yig‘ish kunida mahalliy maishiy xizmat do‘koni aholiga yig‘ilayotgan axlat qayta ishlash qutisi ekanligini eslatish uchun sariq bayroqni ko‘rsatadi yoki yig‘ilayotgan axlat bog‘ qutisi ekanligini eslatish uchun yashil bayroqni ko‘rsatadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Dan: Do‘kondor yashil bayroqni ko‘tardi, ammo bog‘dagi axlat qutisi o‘tgan hafta yig‘ilgan edi.

Karen: Mening qayta ishlash qutim juda to‘lgan va sariq bayroq bugun ko‘rsatildi, shuning uchun bu hafat A hafta bo‘lishi kerak."

Tohir: Do‘konchi har doim axlat qutisi jadvaliga amal qiladi, shuning uchun qayta ishlash qutisi bugun yig‘iladi.

Kimning bayonoti noto‘g‘ri va nima uchun?

A) Tohir do‘kondorga haddan tashqari ko‘p ishonmoqda.

B) Karenda bu hafta qayta ishlash uchun axlatiga ega bo‘lishi kerak

C) Dan sariq bayroqni yashil bayroq bilan adashtirgan bo‘lsa kerak.

D) Karen bog‘dagi axlat yig‘iladigan haftani adashtirgan bo‘lsa kerak.

29 Agar biz chiptalarning to‘rtdan uch qismini sota olmasak, maktab o‘yinlari bekor qilinadi. Agar o‘yinlar davom etsa va biz uni muvaffaqiyatli amalga oshirsak, biz direktorni kelgusi yozda boshqa o‘yin tashkillashtirishimizga ruxsat berishiga ishontirishimiz mumkin. Agar o‘quvchilar ko‘p mehnat qilmasa va o‘z vazifalarini yaxshi o‘rganmasa, bu muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Agar o‘yin muvaffaqiyatli bo‘lmasa, bu bizga ruxsat berilgan oxirgi o‘yin bo‘ladi.

Quyidagi natijalardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Ular barcha chiptalarni sotgan bo‘lsalar ham, o‘yin davom etmadi.

B) Hammasi qattiq mehnat qilib, o‘z vazifalarini o‘rgangan bo‘lsalar ham, o‘yin davom etmadi.

C) O‘yin muvaffaqiyatli bo‘lmadi, garchi ularning barchasi ko‘p mehnat qilib, o‘z satrlarini o‘rgangan bo‘lsalar ham.

CamScanner yordamida skanerlangan

D) Hamma o‘z vazifalarini o‘rganmagan bo‘lsa ham, direktor ularga boshqa o‘yin qo‘yishga ruxsat berdi.

30 Emi faqat yomg‘ir yog‘ayotganda yoki tunda kitob o‘qiydi.
Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri?
A) Agar Emi kitob o‘qimayotgan bo‘lsa, demak hozir kunduzi va yomg‘ir yog‘mayapti
B) Agar yomg‘ir yog‘ayotgan bo‘lsa, Emi kitob o‘qiyapti
C) Agar Emi kitob o‘qiyotgan bo‘lsa va hozir kunduzi bo‘lsa, demak, tashqarida yomg‘ir yog‘moqda
D) Yuqoridagilarning hech biri to‘g‘ri emas

31 Agar Kate ish boshlashdan oldin ma'lum bir soat mashq qilmasa, u ishlashda qiynalishi mumkin. Agar u ishlashda qiynalsa, mijozlar bilan muloqot sifati pasayadi. Agar mijozlar bilan muloqaot sifati pasaysa, biznesining reytingi pasayadi.
Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, qaysi biri **mumkin emas?**
A) Kate yetarlicha soat mashq qilmadi, ammo biznes reytingi ko‘tarildi
B) Keyt yetarlicha soat mashq qildi, ammo biznes reytingi tushib ketdi
C) Keytning mijozlar bilan muloqot qilish sifati yuqori edi, lekin biznes reytingi tushib ketdi
D) Keytning mijozlar bilan muloqot qilish sifati past edi, lekin biznes reytingini oshirishga muvaffaq bo‘ldi

2 Qachon jala yoqsa yoki daryo toshib ketsa, ko‘chamiz suvga to‘ladi.
Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, ushbu jumlalardan qaysi biri **noto‘g‘ri** bo‘lishi kerak?

CamScanner yordamida skanerlangan

A) Jala yoki daryo toshmasa ham, ko‘chamiz suvga to‘lishi mumkin.

B) Daryo toshib ketdi, shuning uchun ko‘chamiz suvga to‘ladi.

C) Jala bo‘lmayapti, shuning uchun ko‘chamiz suvga to‘lmaydi.

D) Agar ko‘chamiz suvga to‘lmagan bo‘lsa, unda jala bo‘lmayotgan bo‘lsa kerak.

33 Rustam yuqori darajadagi shaxmatchi. Agar u shaxmat musobaqasi kunidan oldin yetarlicha uxlamasa, u shaxmat o‘yinida yaxshi natija ko‘rsatishi qiyin bo‘lishi mumkin. Agar Rustam shaxmat o‘yinida yaxshi natija ko‘rsatishga qiynalsa, u o‘yinda mag‘lub bo‘lish ehtimoli yuqori. Agar u yutquzgan o‘yinlar soni ko‘paysa, uning shaxmat reytingi pasayadi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilarning qaysi biri **mumkin emas?**

A) Rustam yetarli darajada uhlamadi, lekin uning shaxmatdagi reytingi ko‘tarildi

B) Rustam yetarlicha uxlagan, lekin uning shaxmat darajasi pasaygan

C) Rustam ko‘p o‘yinlarda yutqazishni boshladi, lekin uning shaxmat reytingi oshdi

D) Rustam ko‘p o‘yinlarda g‘alaba qozona boshladi, lekin uning shaxmat reytingi pasayib ketdi

34 Imtihonni yaxshi topshirish uchun talaba yaxshi o‘qishi kerak. Yaxshi o‘qish uchun u diqqatini darsga qaratgan bo‘lishi kerak.

Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Anna o‘qimagan, shuning uchun u imtihondan o‘ta olmadi.

B) Anna darsga e'tibor bermadi va imtihondan o‘tdi.

C) Anna darsga diqqatini qaratdi va yaxshi o‘qidi.

D) Anna darsga diqqatini qaratdi va imtihonda yaxshi o‘tdi.

CamScanner yordamida skanerlangan

35 Yomg‘ir yog‘ayotganda va tashqaridagi usti yopiq o‘yin maydonchasida o‘qituvchilar yig‘ilishi o‘tkazilayotganda talabalar tanaffusni sinflarida o‘tkazishlari kerak.

Agar yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Tashqarida yomg‘ir yog‘moqda, shuning uchun men sinfda qolishim kerak.

B) Hozir yomg‘ir yog‘moqda, shuning uchun o‘qituvchilar tashqaridagi usti yopiq o‘yin maydonchasida yig‘ilish o‘tkazayotgandir.

C) O‘yin maydonchasida yig‘ilish o‘tkazilmoqda, ehtimol, men tanaffusni sinfda o‘tkazishim kerakdir.

D) Hozir yomg‘ir yog‘moqda va o‘qituvchilar o‘yin maydonchasida, ehtimol men sinfda qolishim kerak.

36 Agar siz makaron qilsangiz, sizga un va tuxum kerak.

Agar bu fikr to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Agar Sayyora un va tuxumdan foydalanayotgan bo‘lsa, u makaron tayyorlayotgan bo‘lishi kerak.

B) Agar Sayyora makaron tayyorlamagan bo‘lsa, unda un yo‘q bo‘lgan

C) Agar Sayyoraning tuxumi bo‘lmagan bo‘lsa, u makaron tayyorlamagan.

D) Sayyora makaron tayyorlagan bo‘lsa, u suv ishlatgan bo‘lishi kerak.

37 Agar Joannes uy vazifasini bajarmasa, u o‘qimay qolishi mumkin. Agar u o‘qimasa, u testda yaxshi natija ko‘rsatmaydi. Agar u testda yaxshi natija ko‘rsatsa, u 90 balldan yuqori ball to‘plashi mumkin. Aks holda, uning imkoniyati qolmaydi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Joannes o‘qimagan, lekin 90 dan yuqori bo‘lgan.

CamScanner yordamida skanerlangan

B) Joannes uy vazifasini bajardi, lekin 90 dan oshmadi.

C) Joannes uy vazifasini bajarmadi, lekin 90 dan yuqori bo‘ldi.

D) Joannes testda yaxshi bajardi, ammo 90 dan yuqori olmadi.

38 Yaxshi bolalar meva ham, sabzavot ham iste'mol qiladilar.

Agar bu fikr to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri noto‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Agar Charli ham meva, ham sabzavot iste'mol qilsa, u yaxshi bola.

B) Tommi yaxshi bola bo‘lmasa, u meva yemaydi.

C) Agar Metyu sabzavot iste'mol qilmasa, u yaxshi bola emas.

D) Agar Freddi yaxshi bola bo‘lsa, u onasiga quloq solidi

39 Inson o‘zining dunyoviy istaklaridan voz kechsagina, ichki xotirjamlikka erishadi.

Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, ushbu jumlalarning qaysi biri ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Agar men dunyoviy istaklarimdan voz kechmasam, ichki xotirjamlikka erisha olmayman.

B) Agar ichki xotirjamlikka erishmoqchi bo‘lsam, menda ruhiy istaklarga ham bo‘lmasligi kerak.

C) Hali ham dunyoviy istaklarga ega bo‘lgan holda, ichki xotirjamlikka ega bo‘lishi mumkin.

D) Ichki xotirjamlik barcha dunyoviy istaklarni yo‘qotishga arziydi.

40 Viki kolleji huquq bo‘yicha yangi kurs uchun talabalarni tanlayotgan edi. Kollej notiqlik tanlovidagi oldingi yutuqlarni ko‘rib chiqdi va huquq fanidan imtihon bilan bir qatorda ingliz tili fanidan imtihon ham belgiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Agar talaba notiqlik tanlovida g‘olib bo‘lgan bo‘lsa, unda ular faqat ingliz tili imtihonini topshirishlari kerak edi. Aks holda ularga huquq fanidan imtihonda 90 balldan yuqori ball to‘plash hamda ingliz tili imtihonidan o‘tish kerak edi. Viki notiqlik tanlovida mukofotni qo‘lga kiritdi, ammo kursga tanlanmadi. Bunga nima sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak?

A) Viki huquq fanidan imtihonda 88 ball oldi.

B) Viki ingliz tili imtihonidan o‘ta olmadi.

C) Viki ingliz tilidan imtihondan o‘tdi, lekin huquq fani imtihonidan o‘ta olmadi.

D) Viki huquq fanidan imtihonda 95 ball to‘pladi, lekin ingliz tili imtihonidan o‘ta olmadi.

41 Dennining maktabi bu yil Respublika tanlovida qatnashmoqchi, maktabdan 5-sinfdan olti o‘quvchidan iborat jamoa yuboriladi. Ko‘plab o‘quvchilar jamoaga qo‘shilishni xohlashadi, shuning uchun maktab Science, Fikrlash qobiliyati va Matematik fanlaridan test o‘tkazadi.

Barcha uchta fan bo‘yicha yillik baholari yaxshi bo‘lgan talabalar ustuvorlikka ega, faqat eng past ball to‘plagan fani bo‘yicha testda qatnashib 80% dan yuqori ball olsa avtomatik ravishda jamoaga olinadi. Qolgan o‘quvchilarning barchasi uchta testni bajarishlari va barcha testlarda 80% dan yuqori ball olishlari kerak. Denni Science va Fikrlash qobiliyati testida atigi 80% ball olganiga qaramay, nega u Respublika tanloviga yuboriladigan jamoaga olindi?

A) Avtomatik ravishda jamoaga kirish huquqiga ega bo‘lgan, jumladan, uchta testdan 80% dan yuqori ball to‘plaganlar ham o‘quvchilar yetarli emas

B) Denni o‘qituvchining sevimli o‘quvchisi edi, shuning uchun u 3 ta testda yaxshi ko‘rsatmaganiga qaramay tanlangan.

C) Ko‘pgina o‘quvchilar juda yaxshi natijalarga erishdilar, chunki ko‘pchilik o‘quvchilar barcha testlarda 80% dan yuqori ball oldi.

CamScanner yordamida skanerlangan

D) Yuqoridagilarning hech biri

42 So‘rovnomada turli sport turlari sportchining kuchiga qanday ta'sir qilishini o‘rganib chiqdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdi:

- Eng kuchli odam golfchi edi.
- Kurashchilarning hammasi yuguruvchilardan kuchliroq edi.
- Ba'zi yuguruvchilar ba'zi golfchilardan kuchliroq edi.

Agar yuqoridagi gaplar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Eng zaif odam yuguruvchi edi.

B) Ba'zi yuguruvchilar ba'zi kurashchilardan kuchliroq edi.

C) Aksariyat golfchilar yuguruvchilardan kuchliroq edi.

D) Ba’zi kurashchilar ba’zi golfchilardan kuchliroq edi.

43 Shaxmat bo‘yicha har yili o‘tkaziladigan "Guliston" shaxmat musobaqasi nazariy va amaliy imtihonlardan iborat. Test natijasiga ko‘ra qatnashchilar oltin, kumush yoki bronza guruhlaridan biriga o‘tkaziladi. Musobaqa sharti quyidagicha: Nazariy testda a‘lo baho olishingiz, qoniqarli baho bilan o‘tishingiz, imtihonda qatnashmasligingiz yoki imtihondan yiqilishingiz mumkin. Agar nazariy imtihonni a’lo bahoga topshirsangiz, amaliy imtihondagi bitta sinovni topshirmasdan g‘olib deb tan olinish huquqini qo‘lga kiritasiz, agar yiqilsangiz, imtihondan chetlatilasiz.

Amaliy imtihon ikkita o‘yindan iborat bo‘ladi. Har bir o‘yinda yutishingiz yoki yutqazishingiz mumkin (durang yo‘q). Agar ikkita o‘yinni ham yutsangiz, oltin guruhiga o‘tkazilasiz, bittasini yutib, boshqasini yutqazsangiz, kumush guruhiga va ikkita o‘yinni ham yutqazsangiz, bronza guruhiga o‘tkazilasiz.

CamScanner yordamida skanerlangan

Muhammad amaliy imtihon natijasiga ko‘ra kumush guruhga o‘tkazildi, lekin u amaliy imtihonda bittagina o‘yin o‘ynadi. Bunga sabab nima bo‘lishi mumkin?

A) Muhammad nazariy sinovdan o‘ta olmadi

B) Muhammad nazariy imtihonni qoniqarli bahoga topshirdi.

C) Muhammad nazariy imtihonni a’lo bahoga topshirdi

D) Muhammad nazariya testini o‘tkazib yubordi

44 Asilbekning otasi maktabga xat yozdi. Uning ta'kidlashicha, o‘quvchilar o‘qituvchining fikri qo‘shilmasligi normal holat. O‘qituvchi o`quvchilarni savollar berishga undashi kerak, hattoki u xato savol bo‘lsa ham. Bu o‘quvchiga faol o‘rganish va o‘z nuqtai nazarini boshqalar bilan bo‘lishish imkonini beradi.

Ushbu bayonotlarning qaysi biri, agar to‘g‘ri bo‘lsa, Asilbekning otasining taklifiga sabab bo‘lishi mumkin?

A) Asilbek maktabga kirganidan beri kamroq gapiradigan bo‘lib qoldi.

B) Asilbekning o‘qituvchisi Asilbekga otasi o‘rgatganidan farq qiladigan narsani o‘rgatdi.

C) Asilbekning o‘qituvchisi Asilbekning savolidan jahli chiqdi.

D) Asilbekning baholari yaxshilanmayapti.

45 G‘alaba qozonish uchun siz barcha asosiy topshiriqlarni va qo‘shimcha topshiriqlarning yarmini bajarishingiz kerak.

Agar yuqoridagi fikr to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Agar Kang barcha asosiy topshiriqlarni bajarib, g‘alaba qozongan bo‘lsa, u barcha qo‘shimcha topshiriqlarni ham bajargan bo‘lishi kerak

CamScanner yordamida skanerlangan

B) Agar Kang g‘alaba qozona olmagan bo‘lsa, u barcha asosiy topshiriqlarni bajarmagan bo‘lishi kerak.

C) Kang barcha asosiy topshiriqlarni bajarmagan bo‘lsa ham, g‘alaba qozonishi mumkin.

D) Agar Kang barcha qo‘shimcha topshiriqlarni bajarib, g‘alaba qozongan bo‘lsa, u barcha asosiy topshiriqlarni bajargan bo‘lishi kerak

46 Agar Garining ishi bo‘lmasa, uning puli bo‘lmasligi mumkin. Agar uning puli bo‘lmasa, u o‘zining sevimli mashinasini sotib ololmaydi va arzonroq mashina sotib oladi. Agar Garining sevimli mashinasi bo‘lsa, u albatta Brisbenga uni haydab boradi.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilarning qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Agar Garining ishi bo‘lsa, u albatta Brisbenga mashinasini haydab boradi

B) Agar Garining ishi bo‘lmasa, u aniq Brisbenga mashinasini haydab bormaydi

C) Agar Garining puli bo‘lmasa, u Brisbenga mashinasini haydab borishi mumkin

D) Agar Gari Brisbenga mashinasini haydab borgan bo‘lsa, unda albatta pul bor.

47 A turdagi xatolik bu: bayonot to‘g‘ri bo‘lganda bayonotni rad etish.

B turdagi xatolik bu: bayonot noto‘g‘ri bo‘lsa, bayonotni rad etmaslik.

Enni va Billyga bayonot berildi. Ikkalasi ham bir xil xulosaga kelishdi: "Fikrlash qobiliyati imtihoni qiyin". Biroq, Enni A turdagi xatoga yo‘l qo‘ydi va Billi B turdagi xatoga yo‘l qo‘ydi.

Enni va Billiga berilgan bayonot qanday edi?

A) Enniga aytilgan gap - "fikrlash qobiliyati imtihoni oson", Billiga aytilgan gap - "fikrlash qobiliyati imtihoni oson"

CamScanner yordamida skanerlangan

B) Enniga aytilgan gap - "fikrlash qobiliyati imtihoni oson", Billiga aytilgan gap – "fikrlash qobiliyati imtihoni qiyin"

C) Enniga aytilgan gap - "fikrlash qobiliyati imtihoni qiyin", Billiga aytilgan gap - "fikrlash qobiliyati imtihoni oson"

D) Enniga aytilgan gap - "fikrlash qobiliyati imtihonini qiyin", Billiga aytilgan gap - "fikrlash qobiliyati imtihoni qiyin"

48 Mutaxassislar fikriga ko‘ra, agar siz kuniga kamida bitta olma iste'mol qilsangiz, siz “Olmani sevuvchi” deb tasniflanasiz. Biroq, “Bronza olma” a'zosi sifatida tasniflanish uchun siz kuniga kamida bitta yashil olma va kamida bitta qizil olma iste'mol qilishingiz kerak. “Kumush olma” sifatida tasniflanish uchun siz bir haftada kamida 3 xil olma iste'mol qilishingiz kerak. “Oltin olma” unvoni har hafta eng ko‘p yashil olma iste'mol qilgan a'zoga beriladi.

Quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Gemma yashil olma iste'mol qilishni yaxshi ko‘radi, lekin qizil olma yemaydi. U kuniga kamida bitta olma yeydi, shuning uchun u Bronza olma” a'zosi sifatida tasniflanadi.

B) Bridjit turli xil olmalarni tatib ko‘rishni yoqtiradi. Bridjit “Bronza olma” a'zosi ekanligini va Jemma “Oltin olma” unvoni bilan taqdirlanganini hisobga olsak, Jemma Bridjitdan ko‘p olma iste’mol qilsa kerak.

C) Anna haftada 5 marta bir xil turdagi olma yeydi va qolgan ikki kun davomida boshqa turdagi olma iste’mol qiladi. U “Kumush olma” sifatida tasniflanadi.

D) To‘g‘ri javob keltirilmagan.

49 Har yili o‘tkaziladigan suzish karnavaliga borishdan oldin, o‘qituvchilar va qutqaruvchilar barcha o‘quvchilarga basseyn qoidalarini aytib berishdi.

Qoidalar quyidacha edi:

1. Basseyn hududiga yaqin yoki uning atrofida yugurish taqiqlanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

2. Basseyn hududida ovqat va ichimliklar iste'mol qilish ta'qiqlanadi
3. Basseynga kirish darvozasi har doim yopiq bo'lishi kerak.
4. 12 yoshgacha bo'lgan bolalar har doim nazorat ostida bo'lishi kerak.
5. 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar basseynga tushishdan oldin ularning suzish qobiliyati baholanishi kerak.

Allan telefonida o'yin o'ynash bilan band edi va qoidalarni eshitmadi, shuning uchun u do'stlari Jessika, Kevin va Zakdan qoidalar qanaqa ekanligini so'radi.

Jessika: Basseyn yonida yugura olmaysiz. Basseyn yonida yeb-icha olmaysiz va basseyn darvozasini yopishingiz kerak. Basseynga kirishdan oldin siz suzish qobiliyati testidan o'tishingiz kerak.

Kevin: Basseyn yonida yugura olmaysiz. Basseyn yaqinida yeb-icha olmaysiz. Basseynning darvozasi har doim yopiq bo'lishi kerak. Basseynga kirishdan oldin siz suzish qobiliyati testidan o'tishingiz kerak.

Zak: Basseyn yonida yugura olmaysiz. Basseyn yaqinida yeb-icha olmaysiz. Basseynning darvozasi har doim yopiq bo'lishi kerak. Basseynga kirishdan oldin sizning suzish qobiliyatingiz baholanishi kerak.

Allanga qoidalarni kim to'g'ri tushuntirdi?

A) Jessika
B) Kevin
C) Zac
D) Hech kim yetarli ma'lumot bermagan

50 Zara do'stining uyida kechki ovqatni o'tkazmoqda va u pishirilgan loviya taklif qildi. U shunday dedi: Agar men pishirilgan loviya iste'mol qilsam, keyin doimo oshqozonim og'riydi.

Agar Zara aytganlari to'g'ri bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Zara loviya yeydi va qorni og'riydi.

CamScanner yordamida skanerlangan

B) Zara oshqozon og‘rig‘ini rivojlantiradi, lekin loviya yemagan.

C) Zara loviya yemaydi va oshqozon og‘rig‘iga duch kelmaydi.

D) Zara loviya yeydi va qorni og‘rimaydi.

51 Agar biz yaxshi uxlasak, unda yugurish uchun energiyamiz bo‘ladi. Agar bizda ko‘proq energiya bo‘lsa, biz juda tez yugurishimiz ehtimoli katta. Tez yugurmasak, maktabimiz uchun estafeta jamoasiga tanlanmaymiz. Milliy yengil atletika musobaqasiga chiqish uchun biz estafeta jamoasiga o‘tishimiz kerak. Quyidagi natijalardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Biz yaxshi uxlaymiz, lekin milliy yengil atletika musobaqasiga chiqolmaymiz.

B) Biz tez yugurmaymiz, lekin baribir milliy yengil atletika musobaqasiga chiqamiz.

C) Biz juda tez yuguramiz, lekin haligacha estafeta jamoasiga o‘ta olmayapmiz.

D) Biz estafeta jamoasini tuzamiz, lekin milliy yengil atletika musobaqasiga chiqolmaymiz.

52 **Rustam** 2024-yil oxirigacha o‘zining restoran biznesini ochadi va hozir unga menejer qidirmoqda. Rustam bo‘lajak menejer ba'zi xususiyatlarga ega bo‘lishini istaydi. Nomzod mehmonxona va restoran boshqaruvi fakultetini bitirgan, 5 yildan ortiq boshqaruv tajribasiga ega, shu sohada 8 yildan ortiq ishlagan, sudlanmagan va samimiy bo‘lishi kerak. Hozirda to‘rtta nomzod bor.

Quvonchbek – 2002-yilda turizm fakulteti bitiruvchisi, u 6 yillik boshqaruv tajribasiga ega, sudlanmagan, 9 yildan beri shu sohada ishlaydi va samimiy.

Sayyora – 2007-yilda mehmonxona va restoran boshqaruvi fakulteti bitiruvchisi, 5 yillik boshqaruv tajribasiga ega, shu sohada 11 yildan beri ishlagan, sudlanmagan va samimiy.

CamScanner yordamida skanerlangan

Samandar – 2010-yilda mehmonxona va restoran boshqaruvi fakulteti bitiruvchi, 6 yillik boshqaruv tajribasiga ega, shu sohada 7 yildan beri ishlab kelmoqda, sudlanmagan va samimiy.

Aziza - 2014-yilda mehmonxona va restoran boshqaruvi fakulteti bitiruvchisi, u o‘zi tamomlagan yildan beri shu sohada ishlab kelmoqda, ishining ikkinchi yilida menejer lavozimiga ko‘tarilgan, sudlanmagan va samimiy.

Rustam bu nomzodlardan qaysi birini isha olish masalasini ko‘rib chiqishi kerak?

A) Quvonchbek

B) Sayyora

C) Samandar

D) Aziza

53 Agar Ford yaxshi ovqatlansa, u o‘sha kuni futbol o‘ynash uchun kuchga ega bo‘ladi. Agar u yaxshi ovqatlanmasa, u o‘sha kuni futbol o‘ynamaydi. Agar u futbol o‘ynasa, o‘zini baxtli his qiladi. Ford faqat futboldan baxtli bo‘lishi mumkin.

Agar u baxtli bo‘lmasa, u ishda yaxshi ishlamaydi.

Yuqoridagi barcha fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quydagilardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Ford yaxshi ovqatlanadi, lekin o‘sha kuni futbol o‘ynamaydi

B) Ford baxtli, lekin ishda yaxshi ishlamaydi

C) Ford futbol o‘ynamadi va ishda yaxshi ishlamadi

D) Ford yaxshi ovqatlanmadi, lekin ishda yaxshi ishladi

54 Futboldagi darvozabon ham baland, ham epchil bo‘lishi kerak.

Agar yuqoridagi fikr to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

CamScanner yordamida skanerlangan

A) Agar Anjelina ham baland, ham chaqqon bo‘lsa, u darvozabon bo‘lishi kerak.

B) Agar Anjelina darvozabon bo‘lmasa, uning bo‘yi baland bo‘lishi mumkin emas.

C) Agar Anjelina darvozabon bo‘lmasa, u chaqqon emas.

D) Agar Anjelina baland bo‘lmasa, u darvozabon bo‘lolmaydi.

55 Agar Rayan yaxshi uxlagan bo‘lsa, u kirish imtihoni testini yaxshi bajarishi mumkin. Kirish imtihoni testini yaxshi bajarganlargina, maktabning maxsus dasturiga olinadi. Maktabning maxsus dasturiga olinganlargina maktab direktori bilan ertalabki choyga taklif qilinish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Aks holda, bu mumkin emas.

Agar yuqoridagi fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Rayan yaxshi uxladi, lekin kirish imtihoni testini yaxshi bajarmadi.

B) Rayan yaxshi uxlamadi, lekin maktab direktori bilan ertalabki choyga taklif qilindi.

C) Rayan kirish imtihoni testini yaxshi bajardi, lekin maktab direktori bilan ertalabki choyga taklif qilinmadi.

D) Rayan kirish imtihoni testini yaxshi bajarmadi, shunga qaramay maktab direktori bilan ertalabki choyga taklif qilindi.

56 Javohirning maktabida dasturlash bo‘yicha yangi kurs uchun talabalarni tanlab olindi. Ularning dasturlash bo‘yicha mavjud bilimlarini hisobga olgan holda, maktabda ularga matematika va shaxmat bo‘yicha test berildi. Agar talaba dasturlash bo‘yicha hech bo‘lmaganda bir qancha mavjud bilimlarga ega bo‘lsa, u faqat matematikadan imtihon topshirishi kerak edi. Agar bunday bilimlarga ega bo‘lmasa, ular matematika testida a'lo ball olishlari yoki matematika va shaxmat

CamScanner yordamida skanerlangan

bo‘yicha imtihonda yaxshi natijalarga erishishlari kerak edi. Javohir tajribali kompyuter dasturchisi, ammo kursga qabul qilinmadi.

Bunga nima sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak?

A) U shaxmat bahsida yomon natija ko‘rsatdi.

B) U matematikadan a'lo ball olmadi.

C) U matematika imtihonidan o‘ta olmadi.

D) Matematikadan ham, shaxmatdan ham yomon ishladi.

57 Agar biror kishi o‘zi yomon ko‘rgan ishda ishlasa, u holda unga pul kerak.

Agar yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Agar odamga pul kerak bo‘lsa, u o‘zi yoqtirmaydigan ishda ishlaydi.

B) Agar biror kishi o‘zi yaxshi ko‘rgan ishda ishlasa, unga pul kerak emas.

C) Agar odam pulga muhtoj bo‘lmasa, u o‘zi yomon ko‘radigan ishda ishlamaydi.

D) Agar odam pulga muhtoj bo‘lmasa, u o‘zi sevgan ishda ishlaydi.

58 Jeyson orqaga egilishni o‘rganayotganida, uning gimnastika ustozi unga: "Ushbu mahoratni egallash uchun siz kuniga kamida 30 daqiqa mashq qilishingiz kerak", dedi.

Agar Jeysonning ustozi haq bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Har kuni kamida 30 daqiqa mashq qiladigan har kim orqaga egilishni o‘zlashtiradi

B) Kuniga 30 daqiqadan kam mashq qilganlarning hech biri orqaga egilishni o‘zlashtira olmaydi

C) Kamroq mashq qiladigan ba'zi gimnastikachilar orqaga egilishni o‘zlashtira oladilar

D) Faqat kuniga 30 daqiqadan kam mashq qilganlargina orqaga egilishni o‘zlashtira olmaydilar

CamScanner yordamida skanerlangan

59 Agar dam olish kuni bo‘lmasa, tushdan keyin har doim tirbandlik bo‘ladi. Agar yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Bugun dam olish kuni, shuning uchun tushdan keyin tirbandlik bo‘lmaydi.

B) Agar kechasi bo‘lsa, ish kunida tirbandlik bo‘lmaydi.

C) Bugun tushdan keyin tirbandlik yo‘q edi, shuning uchun bugun dam olish kuni bo‘lishi kerak.

D) Men hozir tirbandlikda qoldim, shuning uchun hozir tushdan keyin bo‘lishi kerak.

60 Sport jamoasi o‘z o‘yinchilarining mahoratini kuzatib boradi. Ular aniqladilarki, agar o‘yinchi zarba bera olsa, dribling ham qila oladi. Agar o‘yinchi dribling qila olsa, u pas ham bera oladi. Zarba bera oladigan hech bir o‘yinchi to‘pni kurashib olib qo‘ya olmaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar o‘yinchi zarba bera olmasa, u to‘pni kurashib olib qo‘ya olmaydi.

B) Agar o‘yinchi to‘pni kurashib olib qo‘ya olsa, dribling qila olmaydi.

C) Agar o‘yinchi to‘pni kurashib olib qo‘ya olmasa, u pas bera olmaydi.

D) Agar o‘yinchi pas bera olmasa, u zarba bera olmaydi

61 Dinesh maktab loyihasi uchun manzarali rasm chizmoqda. Eng yuqori sifatli rasm Van Gough mukofotini qo‘lga kiritish uchun tanlanadi.

– Agar Dinesh katta plakatdan foydalansa, u xato qilmaydi.

– Agar rasmda xatolik bo‘lsa, u sifatli bo‘lmaydi.

– Moyli bo‘yoq bilan chizilgan rasm boshqa turdagi bo‘yoqlardan ko‘ra sifatli bo‘ladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

– Dinesh kichik plakatdan foydalansa, moyli bo‘yoqdan foydalanadi.

– Plakatlar katta yoki kichik.

Berilgan ma'lumotlarga asoslanib, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Dinesh akril bo‘yoqdan foydalansa, Van Gough mukofotini qo‘lga kiritadi.

B) Dinesh akril bo‘yoqdan foydalanib kichik plakatga chizsa xato qiladi.

C) Dinesh, agar u Van Gough mukofotini qo‘lga kiritmagan bo‘lsa, u akril bo‘yoqdan foydalanmagan bo‘lishi kerak.

D) Dinesh akril bo‘yoqdan foydalangan, demak u katta plakatga chizgan.

62 Bog‘ kaltakesaklari faqat xavfsiz va sog‘lom bo‘lsa, dumini o‘stira oladi. Agar yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Mening bog‘ kaltakesakim dumini o‘stira olmaydi, demak u xavf ostida.

B) Mening bog‘ kaltakesakim dumini o‘stira olmaydi, demak u sog‘lom emas.

C) Mening bog‘ kaltakesakim sog‘lom va xavfsiz, demak uning dumi o‘sadi.

D) Mening bog‘ kaltakesakim sog‘lom emas, demak u dumini o‘stira olmaydi.

63 Meri va Sofi eng yaxshi do‘stlar. Meri uydan tushlik olib keladi. Sofi tushlikni maktab oshxonasida sotib oladi. Ularning tushligi ovqat va ichimlikdan iborat. Ular tushliklari hech qachon bir xil bo‘lmaydi, lekin ba'zida bir xil ovqat yoki bir xil ichimlikni olib kelishadi. Bugun Sofi apelsin sharbati sotib oldi, Meri esa hotdog olib keldi.

Yuqoridagi ma'lumotlar to‘g‘ri bo‘lsa, qaysi fikrni aytish mumkin emas?

A) Sofi oshxonadan hotdog sotib olgan.

B) Ularning ikkalasida ham tushlik uchun apelsin sharbati bor.

CamScanner yordamida skanerlangan

C) Meri apelsin sharbatini olib kelmagan va Sofi hotdog sotib olmagan.

D) Sofi hotdog sotib olgan va Meri apelsin sharbatini olib kelgan.

64 Ronaldu futbol o‘ynashni o‘rganayotganda, uning murabbiyi unga: "Portugaliya terma jamoasiga kirish uchun zarracha imkoniyatga ega bo‘lish uchun to‘pni darvozaga qanday tepishni bilishing kerak".

Ronalduning murabbiyi haq bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Darvozaga to‘p tepishni biladigan har bir kishi Portugaliya uchun o‘ynay oladi.

B) Darvozaga to‘p tepishni bilmasangiz, Portugaliyadan tashqari istalgan jamoada o‘ynashingiz mumkin.

C) Portugaliya jamoasining barcha o‘yinchilari to‘pni darvozaga tepishni bilishadi

D) Ronaldo uchun to‘pni darvozaga tepish darvozabon bo‘lishdan qiyinroq

65 Barcha rassomlar ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega va rassomchilik sohasida kamida ikkita yo‘nalishda mutaxassisdir.

Yuqorida keltirilgan parcha to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar Samandar rassom bo‘lmasa, unda ijodiy fikrlash qobiliyati yo‘q

B) Agar Samandar rassom bo‘lmasa, u rassomchilik sohasida kamida ikkita yo‘nalishda mutaxassis emas

C) Agar Samandar ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lmasa, u rassom bo‘la olmaydi

D) Agar Samandar ijodiy fikrlash qobiliyatiga va kamida 2 ta sohada tajribaga ega bo‘lsa, demak u aniq rassomdir.

66 Kafeda keks pishiruvchi professional oshpaz bo‘lishi va 5 yillik tajribaga ega

CamScanner yordamida skanerlangan

bo‘lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan parcha to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Agar Kiana kafeda keks pishirmagan bo‘lsa, u professional oshpaz bo‘lmasa kerak

B) Agar Kiana professional oshpaz bo‘lmasa, u kafeda keks pishira olmaydi

C) Agar Kiana professional oshpaz bo‘lsa va 5 yillik tajribaga ega bo‘lsa, u kafeda keks pishirsa kerak.

D) Agar Kiana kafeda keks pishirsa, u professional oshpaz bo‘lmasa kerak

67 Maya maktabi debat guruhini tuzish uchun bir nechta talabalarni tanlab oldi. Maktabda ularning akademik ko‘rsatkichlarini hisobga olish bilan bir qatorda, notiqlik bo‘yicha tanlov natijalari ham ko‘rib chiqildi. Agar talaba B yoki undan yuqori akademik bahoga ega bo‘lsa, ular faqat notiqlik bo‘yicha tanlovdan o‘tishlari kerak edi. Agar talabaning akademik bahosi B dan past bo‘lsa, unda ular notiqlik bo‘yicha tanlovda a'lo ball olishlari kerak edi. Mayaning akademik bahosi A, lekin u debat guruhida qatnasha olmadi. A baho B bahodan yuqori hisoblanadi.

Bunga nima sabab bo‘lgan bo‘lishi kerak?

A) Maya notiqlik bo‘yicha tanlovda a'lo ball olmadi

B) Maya notiqlik bo‘yicha tanlovdan o‘tdi

C) Maya notiqlik tanlovida muvaffaqiyatsizlikka uchradi

D) Maya notiqlik tanlovida ishtirok etdi

68 Aziza yaqinda elektronika do‘konini ochdi.Agar Aziza juda ko‘p smartfon sotsa, u holda televizorlariga talab yuqori bo‘ladi. Aks holda, u bunga erisha olmaydi.

Aziza smartfonlarni faqat raqobatchilar nikidan arzonroq narxda bo‘lsa sotishi

CamScanner yordamida skanerlangan

mumkin. Aziza smartfonlarni ulgurji sotuvchidan sotib olsagina raqobatchilardan arzonroq narxda sotishi mumkin. Aks holda, u bunday qila olmaydi.

Quyidagi natijalardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Aziza smartfonlarni raqobatchilarga qaraganda arzonroq narxda sotmagan va u ko‘p smartfon sotmagan.

B) Aziza ulgurji sotuvchidan smartfon sotib olmagan, ammo televizorlariga talab yuqori edi

C) Aziza ko‘plab smartfonlarni sotdi va televizorlarga talab yuqori edi

D) Aziza ulgurji sotuvchidan smartfon sotib oldi va uning televizorlariga talab katta edi

69 Nelli oshpazlik darslariga qo‘shilgach, bosh oshpaz unga: "Pishirish tanlovida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun siz kamida 13 soat pishirish amaliyotiga ega bo‘lishingiz kerak", dedi.

Agar bosh oshpazning gapi to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) 13 soat yoki undan ko‘proq pishirish amaliyotiga ega bo‘lgan barcha talabalar pishirish tanlovida ishtirok etadilar.

B) 13 soatdan kam pishirish amaliyotiga ega bo‘lgan talabalarning hech biri non pishirish tanlovida qatnashmaydi.

C) 13 soatdan kam pishirish amaliyotiga ega bo‘lgan talabalarning ba'zilari pishirish tanlovida ishtirok etadilar.

D) Non pishirish tanlovida faqat 13 soatdan kam pishirish amaliyotiga ega bo‘lgan talabalar ishtirok etadilar.

CamScanner yordamida skanerlangan

70 Ota-onam do‘l yog‘ganda mashinani ichkariga olib kirishadi. Aks holda, ular uni yo‘lakda qoldirishadi.

Agar bu to‘g‘ri bo‘lsa, ushbu jumlalarning qaysi biri ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Hozir yomg‘ir yog‘yapti, shuning uchun mashina ichkariga kiritiladi.

B) Mashina yo‘lakda, shuning uchun do‘l yog‘mayotgan bo‘lishi kerak.

C) Mashina do‘ldan tashqari boshqa sabablarga ko‘ra ichkariga olib kirilgan.

D) Mashina yo‘lda, shuning uchun bugun quyoshli bo‘lsa kerak.

71 Marko yaqinda pishiriqlar do‘konini ochdi. Agar Marko juda ko‘p kichik kekslarni sotsa, unda uning katta kekslariga talab yuqori bo‘ladi.

Aks holda, bunday bo‘lmaydi. Marko ko‘plab kichik kekslarni faqat ta'mi yaxshi bo‘lsa sotishi mumkin. Kekslarning ta'mi yaxshi bo‘lishi uchun Marko o‘zining keksining retseptini takomillashtirishga biroz vaqt sarflashi kerak. Aks holda, ular yaxshi ta'mga ega bo‘lmaydi.

Quyidagi natijalardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Markoning kekslari yaxshi ta'mga ega emas edi va u kichik kekslardan ko‘p sotmadi

B) Marko o‘z retseptlarini takomillashtirishga ko‘p vaqt sarflamagan, lekin baribir katta kekslarga talab yuqori bo‘lgan

C) Markoning kekslari yaxshi ta'mga ega edi, demak uning katta kekslarga juda ko‘p talab bo‘lgan

D) Marko o‘z retseptlarini takomillashtirishga ko‘p vaqt sarfladi va katta kekslariga talab yuqori bo‘ldi.

72 Travis musobaqada qatnashmoqda. Travis barcha harakatlarni eng tez bajarsagina musobaqada g‘alaba qozonadi. Agar Travis musobaqada g‘alaba qozonsa, u shokolad qutisini sovrin sifatida yutib oladi. Agar Travis shokolad

CamScanner yordamida skanerlangan

qutisini sovrin sifatida yutib olsa, u shokoladlarni do‘stlari bilan baham ko‘rishi mumkin. Aks holda, u shokoladlarning hammasini o‘zi yeydi.

Quyidagi natijalardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Travis barcha harakatlarni eng sekin bajardi va shokolad qutisini yuta olmadi

B) Trevis shokolad qutisini sovrin sifatida yutib oldi, lekin uni do‘stlari bilan baham ko‘rmadi

C) Travis musobaqada g‘alaba qozondi va Travisning do‘stlari shokolad qutisidan shokolad yeyishdi.

D) Travis barcha harakatlarni eng tez 2-o‘rinda yakunladi, lekin shokolad qutisini sovrin sifatida qo‘lga kiritdi

73 Tesla - bu elektr avtomobil turi. Elektr avtomobillarning ishlashi uchun benzin kerak emas. Ba'zi avtomobillar elektrik emas.

Quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi **mumkin emas?**

A) Elektr avtomobillari odatiy avtomobillarga qaraganda yaxshiroq

B) Tesla yurishi uchun benzin kerak emas

C) Odatiy avtomobillar elektromobillarga qaraganda yomonroq

D) Tesla yurishi uchun benzin kerak

74 Barcha pianinochilarning barmoqlari uzun va gavdalari to‘g‘ri bo‘ladi.

Agar keltirilgan parcha to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Agar Xeyli pianinochi bo‘lmasa, uning barmoqlari uzun emas

B) Agar Xeyli pianinochi bo‘lmasa, uning gavdasi to‘g‘ri emas

C) Agar Xeylining gavdasi to‘g‘ri bo‘lmasa, u pianinochi emas

D) Agar Xeylining barmoqlari uzun va gavdalari to‘g‘ri bo‘lsa, u pianinochi

CamScanner yordamida skanerlangan

75 Samuel yo uydan masofaviy turib ishlaydi yoki ofisga boradi. Agar yomg‘ir yog‘sa, u holda u aniq uydan turib masofaviy ishlaydi. Agar u kecha uydan turib masofaviy ishlagan bo‘lsa, bugun u ofisga kiradi.

Kecha, seshanba kuni Samuel ofisga kirdi.

Quyidagilardan qaysi biri **mumkin emas?**

A) Samuel dushanba kuni uydan uydan turib masofaviy ishlagan va o‘sha kuni yomg‘ir yog‘ayotgan edi

B) Samuel bugun ofisga kirdi

C) Bugun yomg‘ir yog‘di

D) Samuel bugun ofisga kirdi va yomg‘ir yog‘ayotgan edi

76 Qabul imtihonlarida o‘quvchilar imtihonga kirishlari uchun tug‘ilganlik haqida guvohnomani va imtihon ruxsatnomasini olib kelishlari talab qilinadi.

Yuqoridagi jumladan quyidagi qaysi fikrni aniq ayta olamiz?

A) Malika imtihonga tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasiz keldi. Demak, u imtihonga kiritilmaydi.

B) Madina imtihonga tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani olib keldi. Demak, u imtihonga kiritiladi.

C) Mubina imtihonga talab qilingan ruxsatnomani olib keldi. Demak, u imtihonga kiritiladi.

D) Muslima imtihonga kiritilmadi. Demak, u imtihonga talab qilingan ruxsatnomani olib kelmagan.

77 Olimlarning prognozlariga ko‘ra, agar dunyoda hozirgi sur'atdagidek ifloslanish ortib borsa, 50 yildan keyin global harorat o‘rtacha Selsiy bo‘yicha besh darajaga yuqori bo‘ladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Agar yuqoridagi gap to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagi fikrlardan qaysi biri ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) 50 yil ichida global harorat 5 daraja Selsiyga yuqori bo‘lishi kerak.

B) Olimlarning fikricha, hozirgi global harorat sovuq.

C) 50 yil ichida global harorat o‘rtacha Selsiy bo‘yicha besh darajadan yuqori bo‘lmasligi mumkin.

D) 50 yil oldin, global harorat o‘rtacha besh daraja past edi.

78 Faqat fuqarolar Leo klubiga a'zo bo‘lishlari mumkin. Leo klubi a'zolarining aksariyati yuqori martabali ofitserlardir. Konsertga taklif qilinganlarning bir qismi yuqori martabali ofitserlar edi.

Agar yuqoridagi gaplar to‘g‘ri bo‘lsa, qaysi biri to‘g‘ri bo‘lishi kerak?

A) Konsertga taklif qilingan barcha odamlar Leo klubining a'zolaridir.

B) Ko‘pchilik yuqori martabali ofitserlar Leo klubining a'zolaridir.

C) Barcha yuqori martabali ofitserlar fuqarolardir.

D) Ba'zi yuqori martabali ofitserlar fuqarolardir.

79 Teylorga voleybol bo‘yicha murabbiyi chempionlik turniriga qabul qilinishi uchun haftasiga 5 kun kamida 3 soatdan mashq qilish kerakligini aytdi.

Agar Teylorning voleybol bo‘yicha murabbiyining gapi to‘g‘ri bo‘lsa, quyidagilardan qaysi biri to‘g‘ri bo‘ladi?

A) Har kuni 3 soat yoki undan ko‘proq mashg‘ulot o‘tkazgan barcha talabalar turnirga qabul qilinadi.

B) Haftada 15 soatdan kam amaliyot o‘tkazgan talabalarning hech biri qabul qilinmaydi.

C) Haftada 15 soatdan kamroq amaliyot o‘tkazgan talabalarning ba'zilari qabul qilinadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

D) Har hafta 15 soatdan ortiq amaliyot o‘tkazgan talabalargina qabul qilinadi.

80 Biz iste’mol qiladigan mevalarning 70 foizi asalarilar sababli pishib bizgacha yetib keladi. Bunday fikrni aytishimizga sabab shuki, asalarilar gullarni changlatadilar va shundan so‘nggina meva va sabzavotlarning hosili paydo bo‘la boshlaydi. Ba’zi o‘simliklar esa shamol va boshqa omillar ta’sirida changlanadi. Ba’zilari esa boshqa hasharotlar yordamida changlanadi.

Yuqoridagi mulohaza asosida quyidagilardan qaysi birini aytish **mumkin emas?**

A) Asalarilar gullarni changlatuvchi yagona hasharot emas.

B) Mevali daraxt gullari changlanmasa ular meva bermaydilar.

C) Agar qaysidir daraxt meva bersa, demak uning gullari qandaydir usulda changlangan bo‘ladi.

D) Tabiatda hech bir gul va mevalar hasharotlarsiz changlanmaydi.

81 Kakapo - dunyodagi yagona uchmaydigan to‘tiqush turi.

Ushbu faktdan foydalanib quyidagilardan qaysi birini aytish mumkin?

A) Qafasda boqiladigan barcha turdagi to‘tiqushlar ucha olmaydi.

B) To‘tiqushlarning hali o‘rganilmagan turlari mavjud.

C) Hamma to‘tiqushlar ucha oladilar.

D) To‘tiqushlarning bir turidan boshqa hamma turi ucha oladi.

82 Barcha kvadratlar to‘rtburchak hisoblanadi. Barcha to‘rtburchaklar esa ko‘pburchak hisoblanadi.

Ushbu ma’lumotdan quyidagi qaysi fikrni aytish mumkin?

A) Barcha ko‘pburchaklar to‘rtburchaklar hisoblanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan

B) Barcha ko‘pburchaklar kvadratlar hisoblanadi.

C) Barcha to‘rtburchaklar kvadrat hisoblanadi.

D) Barcha kvadratlar ko‘pburchak hisoblanadi.

CamScanner yordamida skanerlangan